YOSHLAR ONGI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY SIYOSATNING ROLI

Jo'rayev Axadjon Ilyosjon o'g'li
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti
e-mail: ahadjon_183@mail.ru
99897 7642125
https://doi.org/10.5281/zenodo.19438803

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv va integratsion jarayonlar davlat va jamiyatning barcha qatlamlariga o'z ta'sirini o'tkazish jarayonlari, ayniqsa, bu jarayonlarda aholining ijtimoiy o'zgarishlarga beriluvchan qatlami – yoshlar muammolari dolzarb muhokama mavzusiga aylanganligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, yoshlar har qanday mamlakatning harakatlantiruvchi kuchi, kelajagi, istiqbol egalari hisoblanishini inobatga olganda, Yangi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash masalasi davlatning ustivor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev "bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash juda muhim vazifadir"[1], deya ta'kidlab o'tgan edi. Yurtimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi[2]. Bu kuch-g'ayratga to'lgan, mamlakatning ertangi istiqbolini yaratadigan aholining asosiy qatlamidir.

Bugun globallashuv bilan bog'liq jarayonlar yoshlar ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlarga ham ta'sir etib, o'ziga xos xarakterga ega bo'lib bormoqda. Ushbu jarayonlar ta'sir doirasi axborotlar almashinuvida ko'proq namoyon bo'ladi. Bunday almashinuvlar yoshlarni keng imkoniyatlarga chorlash bilan birga turli mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Yoshlar axborotlarni qabul qilishda media madaniyatga ega bo'lsalar, ularda axborot xavfsizligi tamoyili ta'minlanadi.

Asosiy qism

Yoshlar bugungi axborot xurujlarining nishoniga aylanish holatlari ortdi. Bu jarayonlarning yoshlar ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlarda namoyon bo'lishini yosh nuqtai-nazardan qatlamlarga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchi qatlam sifatida umumta'lim maktablarida o'qiyotgan o'quvchi yoshlar e'tiborga olinadi. Bu qatlamga 14-17 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni kiritiladigan bo'lsa, ular ongi va dunyoqarashi to'liq shakllanib ulgurmagan hisoblanadi. Ularni siyosiy jarayonlarning to'liq ishtirokchisi, deb bo'lmaydi. Lekin, ular ta'limda olgan huquqiy bilimlari asosida jamiyatdagi voqeliklarga

nisbatan munosabatlarini bildira oladilar. Ular mehnat qilish huquqi, jamoat ishlarida ishtirok etish imkoniyatiga egalar. Bu qatlam yoshlarining ongi va dunyoqarashiga axborotlar olamining ta'siri kuchliroq bo'ladi.

Ikkinchi qatlamga o'rtacha 17-25 yoshgacha bo'lganlar kiradi. Bu toifa yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki faolroq, ularning turli ko'rinishdagi g'oyalarga beriluvchanligi ko'p kuzatiladi. Bu yoshlarda axborotlar olamidan foydalanish bo'yicha ko'nikma yetarli bo'lib, axborot bilan ishlash kompetensiyasi ham shakllanib ulgurgan. Yoshlar siyosiy jarayonlarga nisbatan mustaqil munosabat bildira oladilar hamda o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga harakat qiladilar.

Uchinchi qatlam 25-30 yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanib, ular jamiyatdagi mustahkam pozitsiyasi bilan ajralib turadi. Bu toifa o'zining mustaqil hayot yo'liga qadam qo'ygan, jamiyatning rivojida faol ishtirok etadigan subyekt sanaladi. Ular saylash, saylanish huquqi, davlat va jamiyat taraqqiyoti jarayonlarida o'zining mavqeini egallashi, tegishli tartib o'z munosabatini bildirish mumkin.

2019-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning 55,2 foizi, ya'ni 11 million 371 ming nafardan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar, shu jumladan, 2 million nafarga yaqinini saylovda birinchi marta ishtirok etuvchilar tashkil etgan[3].

Saylov natijalariga ko'ra, Respublika Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning 9 nafari yoki 6 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etib, ularning 7 nafari erkak va 2 nafari ayollardir[4]. Bu ko'rsatkichlar yoshlar ongi va dunyoqarashining qaysidir darajada shakllanganligini bildiradi.

Yoshlarning siyosiy-ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asoslardan hisoblanadi. Yangi O'zbekiston aholisi[5] ning 64 foizidan ko'prog'ini tashkil qiluvchi yoshlar mehnatga jalb etilgan mehnat resurslarining yarmidan ko'pini 21,1 mln (56 foiz) tashkil etadi[6]. Ular jamiyatning har bir jabhasida o'ziga xos o'rniga ega bo'lib bormoqda.

Yoshlar qatlamida axborot xavfsizligini ta'minlashda mamlakatimizda bir qancha huquqiy-me'yoriy asoslar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947-sonli Farmonida belgilangan beshinchi ustuvor yo'nalishda "axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot

sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish”[7] borasidagi vazifalar belgilab berilgan.

2017-yil 8-sentabrda qabul qilingan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida voyaga yetmagan bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish maqsadida axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi ishlab chiqildi va televideniyadagi barcha axborotlar shu asosda namoyish etilmoqda.

Yoshlar ongi va dunyoqarashini ijtimoiy muhitdagi faolligi va muloqoti bilan namoyon etadi. Ana shu ijtimoiy muhitga globallashuvning ta’siri keng imkoniyatlar berish bilan birga, bir qancha subyektiv muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Keng imkoniyatlardan foydalanayotgan yoshlarning hayot tajribasi, bilimi boyib boradi. Aqlan va ahloqan yuksak ma’naviyatli yoshlarning madaniyati ham kamol topadi, ularning qiyofasida olijanob fazilatlar o‘z aksini topadi. Bularning hammasi har bir yoshni o‘z oldiga biror maqsad qo‘yib, unga erishish uchun harakat qilishga undaydi. Aksincha, berilayotgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, boqimandalik, befarqlik ko‘rinishiga ega bo‘lgan yoshlar ana shunday muammolar girdobiga tushib qolmoqda. Ular foydalanayotgan axborotlarini filtrdan o‘tkazmaydilar. Media savodxonlik va media madaniyatga ega emasligi ularni axborotlar va mafkuraviy tahdidlar xavfidan qutqara olmaydi. Shuning uchun ham bu toifadagi ayrim yoshlar ongi va dunyoqarashida globallashuvning salbiy jihatlari namoyon bo‘ladi.

Globallashuvning yoshlar ongiga ta’sirining salbiy jihatlarini bartaraf etish uchun:

- *birinchidan,* ularda bosqichma-bosqich axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish darkor;

- *ikkinchidan,* yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga oila va jamoatchilik hamkorligini keng jalb qilish kerak;

- *uchinchidan,* yoshlarni nafaqat davlat boshqaruviga, balki mehnat jarayonlariga jalb qilishda yoshlar tashkilotlari, siyosiy partiyalar hamda harakatlar hamkorlikda faoliyat yuritishlari zarur;

- *to‘rtinchidan,* boqimandalik, befarqlik ko‘rinishiga ega bo‘lgan ayrim yoshlarda ona Vatanga daxldorlik tuyg‘ularini uyg‘otish masalalari ishlab chiqilishi lozim.

Hozirgi jadal rivojlanish davrida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar hal qiluvchi ahamiyat ega. Chunki, iqtisodiyot tana bo‘lsa, ma’naviyat jon va ruhdir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadni amalga oshirishda shu ikki ustunga, ya’ni kuchli iqtisodiyot hamda milliy ma’naviyatga suyanamiz.

Ma’naviyat, avvalo, ajdodlarimizning boy merosidan oziqlanadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi, insonlar orasidagi o‘zaro ishonch va hurmatda namoyon bo‘ladi. Ma’naviyat bu xalq taqdiriga befarq emaslik, uning kelajagini birga qurish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatishdir. Ma’naviyat har qanday davlat va jamiyatning mustahkam poydevori bo‘la oladi. Bu poydevorning mustahkam bo‘lishi davlatning kuchli bo‘lishiga kafolat beradi.

Yangi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklari kafolatlangan, farovon hayot sari, ma’naviy yuksalish, ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lidan borilmoqda. Shu maqsadda har qanday sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Barcha sohalarda bo‘lganidek, ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ham yechimini kutib turgan masalalar bisyor. Misol uchun, ulkan o‘zgarishlar, yangi jamiyatning nazariy asosini belgilab beradigan milliy g‘oyani shakllantirish birinchi galdagi masala hisoblanadi. Xalq bir maqsad, yagona milliy g‘oya atrofida birlashsa, o‘sha jamiyat taraqqiyotga erishadi. Lekin hanuz ma’naviyatning to‘liq mohiyatini anglamagan, milliy g‘oyaning xalq birdamligini ta’minlovchi kuchini tasavvur eta olmagan toifalar ham uchrab turadi. Yuksak ma’naviyat yoshlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”[8], deb ma’naviy tarbiyaning ahamiyatiga e’tibor qaratgan edi.

Biz ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushmalar hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish yo‘lida harakat qilinmoqda. Madaniyat va ma’naviyat sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar mehnatini munosib qadrlash choralari ko‘rilyapti. Amalga oshiriladigan islohotlarda yuksak natijalarga erishish, sohaning maqsad-mohiyatini belgilaydigan tizimli tadbirlarni amalga oshirishga bog‘liq. Bu tadbirlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma’naviyat sohasidagi ishlarning natijadorligini ko‘tarish, yoshlarning bilim va dunyoqarashini boyitish, jamiyat a’zolarida sog‘lom mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bo‘yicha olib boriladigan ishlar dasturlar va yo‘l xaritalari asosida amaliyotga tatbiq etilmoqda.

- olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni butun mamlakat miqyosida amalga oshishi, aholining barcha qatlamini qamrab olishiga erishish va bunda yangi usul va vositalardan foydalanish, bu sohada faoliyat yuritadigan

tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samaradorligini ta’minlashga doir choralar tizimi ishlab chiqilmoqda.

- sohaga doir yangiliklarni ommaga tezkor yetkazish, ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-ijtimoiy mavzudagi maqolalar, jamiyatning ilg‘or vakillari tomonidan o‘rtaga tashlangan taklif, tashabbus va g‘oyalar, mutaxassislarning mafkuraviy jarayonlar yuzasidan tahlillarini to‘plash va tarqatish ishlari jadal olib borilmoqda.

- mamalakat aholisining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatildi.

- barcha umumta’lim muassasalarida yoshlar bilan ma’naviy-ma’rifiy sohada shug‘ullanadigan Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi tashkil qilindi. Ularning oylik maoshi davlat budjetidan oliy ma’lumotli o‘qituvchiga teng stavkada to‘lab beriladi.

Yangi O‘zbekistonda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish va taraqqiy ettirish borasida, shuningdek, sohaga doir muammo va kamchiliklarni bartaraf etish borasida izchil faoliyat olib borilmoqda. Ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish va xalq ma’naviyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan yangi-yangi vazifalarni qamrab olgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “...oldimizga qo‘yilgan ulug‘vor maqsad, Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish, farzandlarimiz orasidan yangi Ulug‘bek, Ibn Sino, Xorazmiylar, Navoiy, Boburlarni yetishtirish uchun shart-sharoitlarni yaratib berish lozimligi shubhasiz. Bu ayniqsa bugungi Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan muhim”[9]

Ma’naviy taraqqiyotimiz va milliy g‘oyaning asosiy tayanchlari barkamol avlodni tarbiyalash, ilm-fanni yuksaltirish, jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va turmush tarzini shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirish uchun yoshlarga juda kichiklik chog‘idanoq Vatanga va oilaga sadoqat, mas’uliyat, keng fikrlash, bilimga chanqoqlik kabi insoniy fazilatlarni singdirib borish zarur. Shundagina jamiyatda mafkuraviy immunitet, sog‘lom dunyoqarash mustahkam o‘rin egallaydi.

Ba’zi chet el nashrlari, asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali g‘arazli maqsadlarda tarqatiladigan buzg‘unchi g‘oyalarga yo‘g‘rilgan materiallar, ma’naviyatimizga zid axloqiy unsurlar, turli mavzu va shakldagi axborotlarga qarshi tura olishda ma’naviy tarbiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Millat ravnaqi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy tarbiyani uzluksiz davom ettirishda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorlikda ishlashini ko‘zda tutadigan maxsus konsyepsiya qabul qilindi.

Ushbu konsyepsiyani amalga oshirish rejasiga ko‘plab tadbirlar kiritilgan bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatida har bir O‘zbekiston fuqarosida Vatanga muhabbat, elparvarlik, mardlik, jasorat, halollik, vijdon, or-nomus kabi fazilatlarni tarbiyalash yotadi. Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida, mamlakatimizdagi demokratik islohotlarga hamohang so‘z erkinligi tufayli ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni keskin faollashdi. Bunday pallada yoshlarning ta’lim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Albatta, bunday murakkab vaziyatda ishlash, natijaga erishish uchun, eng avvalo, sharoit va yuqori malakali kadrlar kerak bo‘ladi.

Xulosa

Rivojlanish yo‘liga kirgan barcha davlatlar qatori O‘zbekistonda ham yangicha ishlash, yangicha fikrlash davr talabiga aylandi. Bizda hanuz dunyoda, mintaqamizda bo‘layotgan siyosiy-ijtimoiy voqea-hodisalarni chuqur tahlil qilib, odamlarga yetkazib beradigan malakali mutaxassislarga katta ehtiyoj mavjud.

Biz dunyoda murakkab g‘oyaviy kurashlar yuz berayotgan, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, giyohvandlik kabi illatlar insoniyatni jarga tomon yetaklayotgan bir davrda yashayapmiz. Tinchligimiz, barqaror rivojlanish yo‘limizga xavf soladigan bunday ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashishning yangi usul va uslublaridan foydalanish davr talabiga aylanmoqda.

Hozirgi kunda olg‘a surilayotgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasini ko‘p millatli xalqimizning qalbiga singdirish, ularni ushbu ezgu g‘oya atrofida birlashtirib, kelajakka ishoch ruhini, bunyodkorlik, tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish ma’naviy sohadagi faoliyatimizning bosh mezonidir.

Shunday ekan, aholimizning hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chorasini ko‘rish kerak..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. // “O‘zbekiston” nashriyoti, T., 2022 y., 253-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aholi va demografiya statistikasi. — Toshkent: O‘zstat, 2023. — B. 12–13.

3. Markaziy saylov komissiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi saylovlari statistikasi. — Toshkent: SIK, 2020. — B. 8–9.
4. Yangi O‘zbekiston aholisi 1-aprel 2025 yil holatiga ko‘ra 37,7 mln kishini tashkil etadi. // Manba: https://kun.uz/kr/news/2025/04/11/ozbekistonda-doimiy-aholining-necha-foizi-mehnatga-layoqatli
5. O‘zbekistonda doimiy aholining necha foizi mehnatga layoqatli?// https://kun.uz/kr/news/2025/04/11/ozbekistonda-doimiy-aholining-necha-foizi-mehnatga-layoqatli
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. №UP-4947, 07.02.2017. — www.lex.uz
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // “O`zbekiston” nashriyoti, T., 2022 y., 248-bet.
8. https://parliament.gov.uz/oz/articles/95
9. Ma’naviy ma’rifiy tarbiya: yoshlarning xohish istagiga hamohang, qiziqishiga mos bo‘lsin. // https://yuz.uz/news/manaviy-marifiy-tarbiya